



ALISHER NAVOIY IJODIDA TIMSOLLAR TASNIFI (O'RGANILISHI)

Rahmatova Sitora Bobir qizi

Navoiy davlat universiteti 2-kurs magistranti

raxmatova1017@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15462918>

ARTICLE INFO

Received: 5th May 2025

Accepted: 10th May 2025

Published: 19th May 2025

KEYWORDS

Alisher Navoiy, timsol, ramz, badiiy obraz, tasnif, sufizm, milliy tafakkur, lingvopoetika, poetik tizim, badiiy tafsir.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida timsollarning badiiy-falsafiy mazmuni, hujjat ramziy qatlamlari va poetik obrazlar tizimidagi o'rni tahlil qiladi. Asarda Navoiy yaratgan timsollar turli xil tasviriy shakllarda — personajlar, tabiatlari, hayvonot olami, jismoniy va ruhiy hodisalar orqali ifoda topgan. timsollarni tasniflash maqolalari (mav, funktsiya yuk, estetik ahamiyat) asosida guruhlash ishlari amalga oshirish. Timsollar tahlilida hujjat milliy-estetik qadriyatlar va sufiyona tafakkur bilan bog'liqligi alohida ko'rsatib o'tiladi. ilmiy tadqiqot Navoiy asarlaridagi ramziy timsollarning g'oyaviy-badiiy yukini ochish, ularni lingvopoetik va konseptual tahlil qilish maqsad qilingan.

Alisher Navoiy ijodi — o'zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak cho'qqilaridan biri bo'lib, unda tasavvufiy g'oyalar va timsollar alohida o'rin tutadi. Uning asarlarida tasavvuf — shunchaki diniy-falsafiy yo'nalish emas, balki insonning ichki kamolot sari intilishi, haqiqatga, ya'ni Haqqa yetishish yo'lidagi ruhiy-ma'naviy jarayon sifatida talqin etiladi. Navoiy asarlarining mohiyatini barcha ma'no qirralari bilan anglab yetish uchun nafaqat badiiy, diniy, tasavvufiy, afsonaviy timsollar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish taqozo qilinadi. Ularning qanday mazmun kasb etayotganini, misralarda qanday vazifa bajarayotganini bilmay turib, asl mohiyatga yetish mushkul.

Jumladan, Navoiy ijodida qo'llanilgan timsollarni quyidagi guruhlar asosida o'rganishimiz mumkin.

1. An'anaviy timsollar: gul, sham, parvona, sarv, sabo, oshiq, mashuq.
2. Diniy timsollar: Muhammad nuri, Iso ignasi, ismi a'zam, bayt ul-hazan.
3. Tasavvufiy timsollar: singan safol, so'fiy, orif, zohid, lomakon, xuffosh, may, mayxona.
4. Afsonaviy timsollar: Simurg'(Anqo), samandar, qaqnus, humo, ajdarho.
5. Xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq timsollar: ko'hi Qof, zol, yada toshi, pari, roviy.

Nazora Bekovanning "Navoiy ijodida gul badiiy timsol sifatida" (Til va adabiyot taqvim, 2016, 5-1-son) nomli ilmiy maqolasi asosida

Nazora Bekovaning “Navoiy ijodida gul badiiy timsol sifatida”¹ maqolasi Alisher Navoiy ijodida gul obrazlarining badiiy timsol sifatidagi o‘rni, semantik funksiyasi va tasavvufiy-estetik talqinini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy urg‘u Navoiy g‘azallaridagi rayhon, sumbul, nargis, lola, yosmin va suman kabi gullarning ramziy, poetik va falsafiy mazmunlariga qaratilgan.

1. Lisoniy-semantik yondashuv:

Maqola Navoiy asarlaridan olingan bevosita misollar yordamida tahlil qilinadi. Har bir gul obrazining bevosita mazmuni, shakli, hidi, ranggi, konnotativ (his-tuyg‘uli) ma‘nolari tahlil qilingan.

2. Tasavvufiy talqin elementi: “Jilva” so‘zi orqali tasavvufiy go‘zallik tushunchasi izohlanadi. Gullar ilohiy jamolning ramzlari sifatida talqin qilinadi. Gullar ko‘pincha Haq ishqining ko‘rinmas timsollariga aylantiriladi, lekin bu qism chuqur sufiy tafakkur asosida emas, umumiy badiiy-estetik doirada ochilgan.

3. Shaxsiylashtirish (tashxis) san‘ati orqali badiiylikni izohlash: Shoir baytlardagi gul obrazlarini insoniy sifatlar bilan uyg‘unlashtiradi (masalan, “sumbul — zulf”, “nargis — ko‘z”, “lola — ko‘ngildagi qon”).

Bu uslub orqali insoniy tuyg‘ular tabiat bilan birga talqin etiladi. Gul timsollari orqali shoir dunyoqarashi ochib berilgan: Gullar orqali faqat tashqi go‘zallik emas, balki ichki kechinmalar ham aks ettiriladi.

Ayonki, mumtoz adabiyotda Qur‘oni Karimda nomlari zikr etilgan payg‘ambarlar bilan bog‘liq tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy Muhammad (s.a.v.) va boshqa payg‘ambarlarni yuksak ehtirom bilan tilga oladi. Xususan, Hazrati Muhammad (s.a.v.) obrazi “Munojot”, “Nazm ul-javohir”, “Lison ut-Tayr” kabi asarlarda nur manbai, shafolat egasi sifatida tasvirlanadi. Musoning ilmi, Isoning mo‘jizasi, Yusufning jamoli kabilarga qayta-qayta murojaat qilinadi. Bundan tashqari ularda Qur‘on oyatlariga ishoralar ham mavjud. Masalan, “Nur” surasidagi ilohiy nur timsoli, yoki “Yusuf” surasi voqealari ko‘plab majoziy ifodalarga asos bo‘ladi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida islomiy mafkura, Qur‘on va hadis ilmidan foydalanib bir qancha ma‘naviy-axloqiy g‘oyalarni yuksak darajada ifodalaydi. Bu xususda Najmiddin Komilov, Ergash Ochilov, Ibrohim Haqqul ilmiy tadqiqotlarida keng mushohada yuritilgan. Jumladan, Ergash Ochilovning Xizr va Masih borasidagi izlanishlari diqqatga sazovor². “Navoiyning quyidagi g‘azalida ham ikki mashhur payg‘ambar- Xizr va Masih radif qilib olinib, ularga asosiy urg‘u berilgan.

Ey, xat-u la‘ling qoshida munfail Xizr-u Masih

Ne yoshunmoqdur, gar emaslar xijil Xizr-u Masih”³.

Ergash Ochilovning ushbu mavzuga bag‘ishlangan maqolasida Alisher Navoiyning g‘azaliyati, xususan, Xizr va Iso (Masih) timsollarini talqin etuvchi bir g‘azali asosiy tahlil obyekti sifatida tanlanadi. Bu g‘azalda Payg‘ambarlar obrazlari go‘zallikning, ilohiy haqiqatning va ma‘shuqaning (Haqning) oldida ojiz qolgan timsollar sifatida ishlatilgan. Muallif ushbu ramzlarni nafaqat badiiy-estetik, balki tasavvufiy-falsafiy asosda sharhlab, Navoiy tafakkurining g‘oyat kengligini ochib beradi.

¹ Nazzora Bekova. “Navoiy ijodida gul badiiy timsol sifatida”. Til va adabiyot ta‘limi. 2016, 5-1-son. Bet-47.

² Haqqulov I. Ochilov E. Ishq va hayrat olami. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. — B. 163-170.

³ Haqqulov I. Ochilov E. Ishq va hayrat olami. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. — B. 163.

G'azaldagi asosiy syujet g'oyasi — go'zallik (haqiqat) oldida hatto payg'ambarlar ham ojiz, bu orqali Navoiy so'fiyona ishq yo'lga e'tibor qaratadi. Maqolaning eng asosiy yutug'i — tasavvufiy tushunchalarni g'azal tahliliga uyg'unlashtirganidir.

Xizr – ilmi ladun egasi, ya'ni Allohdan bevosita bilim olgan zot sifatida talqin etiladi⁴. Masih esa ruhoniy jon ato qiluvchi, tiriklik timsoli bo'lib, uning lablari ilohiy nafas manbai sifatida ko'riladi. Ammo Navoiy ularni ham ma'shuqaning (ya'ni Haqning) xat va la'l oldida xijolatda deb ko'rsatadi. Bu, so'fiylikda Haq ishqining benihoya yuksakligini bildiradi: hatto ma'naviy komil zotlar ham bu ishq qarshisida ojiz qoladi. Bu yondashuv so'fiylarning "haqiqiy ma'shuq faqat Allohdir" degan aqidasi mos keladi.

Ushbu maqolada bir qancha badiiy san'atlarning misralardagi mohiyatiga ham urg'u berilgan. Ergash Ochilov poetik san'atlarni chuqur talqin qilar ekan, xat va la'l so'zlari — Xizr va Masih bilan bog'lab keltiriladi. Bu yig'ish va yoyish san'ati orqali tugal bir badiiy konstruktsiya hosil qilinadi.

O'ylakim, Xizr-Masih oldida sabza birla su,

Xatting-u la'ling qoshida uyla bil Xizr-u Masih⁵.

Tazod: Yer osti (obi hayvon) va osmon (quyosh), zulmat va nur qarama-qarshiligi orqali ruhiy yuksalish, botiniy ma'no ifodalanadi.

Husni ta'lil: Xizrning yerga, Masihning osmonga yashiringanligi, go'yoki ma'shuqaning la'lidan uyalganligi bilan izohlanadi. Bu holat chiroyli dalillar orqali tushuntirish usulidir.

Tashbeh va istiora: Lab – tiriklik manbai, xat – mayin sabzaga o'xshatiladi va bu orqali g'azalda ma'no qatlamlari boyitiladi. Darhaqiqat, Navoiy ijodida san'atlar poetik go'zallikni oshiribgina qolmay, tasavvufiy tafakkur asoslarini badiiy ifodalash vositasiga aylangan.

Ergash Ochilov ushbu mavzudagi o'z qarashlarini Qur'oni karim va hadislar asosida izohlaydi. Xususan:

Xizr obrazining Qur'ondagi talqini (Kahf surasi) – abadiy hayot suvi, yashirin ilm bilan bog'lanadi. Iso Masih — Ruhulloh sifatida, quyoshga yaqin osmonda deb tasvirlanadi (mi'roj rivoyatlari asosida). Bu diniy obrazlar Navoiy g'azallaridagi badiiy ifoda bilan sintez qilingan.

Navoiyning "Xizr-Masih" radifli g'azali tashqi go'zallik haqida emas — ma'naviy go'zallik, haq ishq, tasavvufiy kamolot haqida. Ergash Ochilovning izlanishlari esa bu botiniy qatlamlarni badiiy misollar bilan ochib beradi. Jumladan:

xat va la'l – faqat chiroy emas, ilohiy kalom va nur manbai;

Xizr va Masih – insoniyatga hidoyat keltirgan zotlar ham Haq jamoli qarshisida ojiz.

Bu yondashuv Navoiy asarlarini faqat lirika emas, balki falsafa va tasavvuf manbasi sifatida o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

Tasavvuf adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy ijodida uchraydigan 'Muhammad nuri' timsoli ham g'azallarda o'ziga xos ruhiy-falsafiy va diniy ma'no yuklovchi omillardan biridir. Bu timsol, asosan, Payg'ambar Muhammad (s.a.v)ning nur sifatida yaratilgani, hatto borliqdan avvalgi mavjudlik sifatida talqin qilinadi. Ushbu tasavvur Qur'oni karim va hadis ilmidan ilhomlanib, so'fiylar tomonidan keng adabiy-badiiy shaklda ifoda etilgan.

⁴ Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. 2-kitob. – Toshkent: "Yozuvchi", 1991–B.68.

⁵ Haqqulov I. Ochilov E. Ishq va hayrat olami. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. – B.168.

Tasavvufga ko'ra, "nuri Muhammad" — bu ilk mavjudlik, "haqiqat al-Muhammadiyya", ya'ni Muhammad haqiqatidir. Bu nazariya Ibn Arabiy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi singari yirik so'fiylar tomonidan takomillashtirilib, nur timsoli orqali ilohiy haqiqatning jamoli sifatida talqin qilingan.

Alisher Navoiy ijodida "Muhammad nuri" timsoli chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, ayniqsa, uning "Lison ut-Tayr", "Munjojt", "Munshaot", va "Nasoyim ul-Muhabbat" kabi asarlarida bu timsolga bir necha marotaba duch kelish mumkin. Navoiy Muhammad (s.a.v)ni nafaqat bashariyatning eng oliy namunasi, balki mavjudot yaratilishining sababchisi sifatida ko'radi. Darhaqiqat "Muhammad nuri" barcha mavjudotga hayot bag'ishlovchi, borliqning mohiyatini ifoda etuvchi ilohiy nurlar manbaidir.

Najmiddin Komilov "Tasavvuf" asarida bu xususda quyidagi fikrlarni qayd etadi: "Tasavvufga ko'ra MUhammad nuri olam va odam yaratilmasdan mavjud edi. Ollah taolo dastlab MUhammad alayhissalomning nurini yaratib, keyin shu nur tufayli olamlar va odamlarni vujudga keltirilgan. Shuning uchun olamning asosida Muhammad nuri yoki Muhammad haqiqati yotadi"⁶.

Olam-u odam fidong o'lsinki, borsen ,ey habib,

Sen g'araz insondin ar, olamdin insondur g'araz⁷.

Ushbu bayt Ergash Ochilov tomonidan izohlanar ekan, birinchi misrada olam va odamning yaratilishidan maqsad Muhammad alayhissalom ekanligi ochiqilanadi. Garchi zohiran Odam Ato oldin yaratilgan bo'lsa ham, mohiyatan, nur sifatida Muhammad payg'ambar hammadan ilgari yaratilgan⁸.

Navoiy o'zining she'riy asarlarida Muhammad (s.a.v)ni "nuri azal", "zulmat ichra yo'l ko'rsatuvchi mash'al", "borliq sababi" deb ta'riflaydi.

Umuman olganda, "Muhammad nuri" timsoli Navoiy ijodida faqat diniy obraz emas, ruhiy yuksalishga undovchi ramzdir. Bu timsol orqali Navoiy nafaqat o'zining diniy-falsafiy qarashlarini ifoda etadi, balki tasavvuf adabiyotida Muhammad (s.a.v) shaxsining o'ziga xos yuksak maqomini, ma'naviy axloqiy yetukligini adabiy-estetik vositalar orqali mujassamlashtiradi.

Umuman olganda, Ergash Ochilovning tadqiqotlari Navoiy asarlariga zamonaviy ilmiy yondashuv namunasi bo'lib, ularda tasavvufiy tafsir usuli, badiiy san'atlar tahlili, Qur'oniy kontekst va chuqur poetik nigoh ustalik bilan uyg'unlashtirilgan.

Navoiy ijodidagi tasavvufiy obraz va timsollar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, ular shoir ijodida nafaqat badiiy bezak, balki chuqur falsafiy mazmun kasb etuvchi vositalar sifatida qaraladi. Ular orqali shoir o'z davrining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini ilgari surgan, o'qirmanni o'zini anglash va ma'naviy kamolot sari chorlagan. Jumladan, tasavvufiy tafakkurda "singan safol" (sindirilgan sopol idish) timsoli o'ziga xos chuqur ramziy ma'noga ega. Bu timsol insonning nafsini yengishi, ma'naviy poklanishi va haqiqatga yetishish yo'lida boshidan kechirgan iztiroblari, sinovlari va fano holatini ifodalaydi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida bu obraz majoziy bir tasvir sifatida emas, balki butun bir tasavvufiy falsafaning timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

⁶ Komilov N. Tasavvuf. — Toshkent: "Yozuvchi", 1996. — B. 42.

⁷ Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. O'zbekiston: "Fan". 20 jildlik asarlar to'plami. III tom. 275-g'azal. — B. 161.

⁸ Qarang: Haqqulov I. Ochilov E. Ishq va hayrat olami. — Toshkent: "O'zbekiston", 2016. — B. 158.

Alisher Navoiy o'z asarlarida ko'pincha safol va singan tushunchalarini inson qalbi, ruhiy zaiflik, ammo ayni paytda Allohga yaqinlikning bir bosqichi sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, uning "Lison ut-Tayr" asarida safar qiluvchi qushlarning ma'naviy yo'li tasvirida bu timsollar uchraydi. Qushlarning tanlagan yo'li – Haqiqiy Mahbubga intilish – aynan nafsni sindirish, shaxsiy istaklardan voz kechish orqali amalga oshiriladi. Navoiy she'riyatida singan safol timsolining ko'p uchrashi "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibiga kiruvchi har bandi "Xarobot aro kirdim oshuftahol, May istarg'a ilgimda sing'an safol" bayti orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Ergash Ochilov ta'biri bilan aytganda, "Sing'an safolning ma'no doirasi keng bo'lib, u siniq ko'ngil, dardli ko'ngil, ilohiy ishqdan boxabar ko'ngil, faqr, qadah, jom timsoli bo'lib keladi. Bu istiloh vositasida shoir ilohiy ishqdan boxabar va bexabar kishilarni o'zaro zid qo'yib tasvirlaydi⁹.

Baytul hazan

Bundan tashqari shoir ijodida uchraydigan bir qancha afsonaviy timsollar g'azallar mohiyatini ochishda katta ahamiyat kasb etadi va ularning har biri o'ziga xos ramziy ma'nolarga ega. Bu orqali ilohiy haqiqatlar, ruhiy kamolot bosqichlari va insonning ma'naviy sayri ifodalanadi. Ayniqsa, qushlar obrazi — Anqo (Simurg') va Qaqnus — insonning Haqqa bo'lgan intilishi, ruhiy sayr, fano va maqomlarning timsoli sifatida ishlatiladi. Alisher Navoiy bu timsollarni chuqur falsafiy ma'noda, keng kontekstda qo'llagan va ularni o'zining tasavvufiy asarlarida muhim ma'naviy belgi sifatida ilgari surgan.

Anqo¹⁰ — Sharq adabiyotida afsonaviy qush bo'lib, u ko'rinmaydigan, ammo mavjud bo'lgan ilohiy haqiqatning timsoli sifatida talqin etiladi. Tasavvufda Anqo — Haqning ramziy shaklidir. Bu obraz birinchi bor Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarida chuqur falsafiy asosda ishlangan. Alisher Navoiy bu an'anani davom ettiradi va o'zining "Lison ut-Tayr" asarida Anqoni qushlar izlayotgan Haq sifatida talqin qiladi. Bu yerda Anqo — ilohiy haqiqatni topish yo'lida ko'plab mashaqqatlardan o'tish kerakligini ifodalaydi. Navoiyda Anqo o'z "yo'qligi" bilan mavjuddir — bu esa tasavvufdagi "fano filloh" g'oyasining badiiy aksidir.

Anqo timsolining ilk va mukammal tasavvufiy talqini Fariduddin Attor ning "Mantiq ut-Tayr" asaridir. Bu asar Navoiy uchun asosiy manba bo'lgan.

Qaqnus (yoki Finoq, Yevropada Feniks) — Sharqiy va G'arbiy afsonalarda qayta tug'ilish timsoli bo'lib, o'zini yondirib, kuldan qayta tiriluvchi qush sifatida tasvirlanadi. Tasavvufda bu obraz insonning nafsiy halokatidan so'ng, ma'naviy jihatdan qayta tug'ilishi — baqo ba'dal-fano holatini ifodalaydi. Alisher Navoiy bu timsolni ko'proq ramziy ma'noda ishlatgan. Xususan, "Lison ut-Tayr"da Qaqnus o'zining ovozi bilan o'zini yoqib yuboradi — bu nafsdan voz kechish, fano bo'lishni anglatadi. Bu yerda Qaqnusning o'zini yondirishi — Haq ishqida yo'q bo'lish, tasavvufiy fano holatini topish ramzidir.

Nomam eltur qush agar mazmunin eltib qilsa sharh,

Sochqay o't qaqnus kibi ming chok o'lib minqor anga¹¹.

Chuqur falsafiy va ruhiy ma'nolarni o'zida mujassam etadigan timsollardan biri — Samandar bo'lib, u o'ziga xos ramziy yuklama bilan tasavvufiy tafakkurda alohida o'rin egallaydi. Samandar asosan olovda yashovchi afsonaviy qush yoki jonivor sifatida talqin qilinadi. U olov

⁹ Haqqulov I. Ochilov E. Ishq va hayrat olami. --Toshkent: "O'zbekiston", 2016. --B.232.

¹⁰ Izoh: Qof tog'ida yashaydigan afsonaviy qushning nomi. Qaysi qush Qofi fano anqosi ul, Jumlayi qushlar tili donosi ul (Lison ut-tayr, 193-12). Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1-jild. --Toshkent: "Fan", 1983. --B.102.

¹¹ Navoiy A. Lison ut-tayr. 20 jildlik. 12-jild. --Toshkent: "Fan", 1996. --B.279.

ichida halok bo'lmaydigan, aksincha, olovni yashash muhiti deb biladigan mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Bu obraz ilohiy muhabbat (ishq ilohiy) yo'lida sabr, fidokorlik va bardoshlilik timsoli sifatida tasavvufiy tafakkurda keng qo'llanadi. Mutasavvif shoirlar Samandarni Haq yo'lida yonib kuydigan oshiq ruhining timsoli sifatida ko'rsatadilar. Chunki Haq ishqining harorati oddiy olovdan kuchliroqdir va bu yo'ldagi oshiq haqiqiy ma'noda ich-ichidan kuyadi, ammo bu holat unga halokat emas, balki najot va yetuklik sari yetaklovchi holatdir.

Alisher Navoiy ijodida Samandar timsoli chuqur falsafiy va tasavvufiy ma'no kasb etgan. U bu obraz orqali o'zining ilohiy ishqqa bo'lgan intilishlarini, riyozat yo'lida ko'rgan iztiroblarini, lekin bu azoblar uni yo'ldan qaytarmasligini ifodalaydi.

Masalan, Navoiy "Lison ut-Tayr" asarida, Samandarni Haq ishq yo'lida o'zini olovga otgan oshiq timsolida keltiradi. Bu yerda Samandarning olovda yashashi, oddiy hayotiy azoblardan emas, balki ilohiy muhabbatning haroratidan zavq olishiga ishora bor. Navoiy Samandar timsolida haqiqiy oshiq Haq ishq yo'lida har qanday mashaqqat va balolarga chiday olishini madh etadi.

Samandar timsoli Navoiyning bir qancha hamd va na't g'azallarida ham uchraydi.

O't ichra tushsa bo'lur nisbati samandardek

Kishikim, ishqing o'tig'a o'zin qilib mansub.¹²

Adabiyotshunos Karomat Mullaxo'yeva ta'biri bilan aytganda, "o'tdan yaratilib, shu o't ichida yashaydi deb tasavvur etiladigan bu jonivor klassik matnlarda ramziy ma'noda ishq o'tida yonib yashaydigan oshiq timsolini anglatadi. Baytda samandar timsol-tashbehini qo'llagan shoir Rasulullohga muhabbat mo'min uchun tiriklikning ma'no mazmuni ekanligiga ishora qiladi."¹³

Demak, tasavvufda, xususan, Alisher Navoiy ijodida Samandar timsoli ilohiy ishq yo'lida o'zini qurbon qilgan, yonishdan qo'rqmaydigan oshiqning ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu timsol orqali shoir riyozat, sabr, fano va Haqqa yetishish yo'lida kechiriladigan ichki kurashni badiiy-falsafiy ifodalagan. Samandar o'z mohiyatida ruhiy komillik sari intilayotgan insonning timsolidir. Tasavvufda "zol" (yo'ldan ozgan, adashgan) timsoli ko'pincha insonning haqiqiy ma'naviy yo'ldan chiqib ketishini, nafs yoki dunyo havaslariga berilib, Haqdan uzoqlashishini ifodalaydi. Bu obraz orqali tasavvufiy adabiyot, xususan, Alisher Navoiy o'z asarlarida ruhiy poklanish zaruratini va insonning haqiqiy maqsadini – Haq yo'lga qaytishini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy ijodida xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq timsollar ham muhim o'rin tutadi. U xalq donishmandligi, maqollar, rivoyatlar, afsonalar va ramzlar orqali o'z g'oyaviy-estetik qarashlarini yanada boyitgan. Bular orqali shoir xalqning ruhiy olami, qadriyatlar va dunyoqarashini badiiy ifodalagan. Ulardan biri Navoiy asarlarida uchraydigan zol timsolidir.

Zol – "zalol" (yo'ldan ozish) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu timsol ostida ruhiy adashganlik, Haqqa bo'lgan beparvolik, nafsga quloq tutish yotadi. Zol — yo'ldan ozgan banda sifatida tavsiflanadi, ammo tasavvufda u jazolanadigan emas, balki yo'lga qaytariladigan, hidayat topishi mumkin bo'lgan mavjudot sifatida talqin qilinadi.

¹² Alisher Navoiy. Badoye ul-bidoya. 53-g'azal.

¹³ Mullaxo'yeva K. Alisher navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol ba badiiy san'atlar uyg'unligi.--Toshkent: "Akademnashr", 2019.--B.48.

Navoiy o'zining masnaviylari, ayniqsa "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Lison ut-Tayr" kabi asarlarida zol obrazidan ramziy ma'noda foydalanadi. U ruhiy o'zlik, dunyoviy bog'liqlik ramzlari. Ular orqali Navoiy inson nafsini yengmas ekan, Haqqa yetolmasligini ko'rsatadi.

Zol timsoli Navoiy ijodida shunchaki "yo'ldan ozgan" emas, balki ma'rifat sari yurishga hozirlanayotgan, hidayat kutayotgan holatdagi inson ramzi sifatida aks etadi. Tasavvufiy tafakkurda zol – bu yo'qotilgan emas, balki topilishi kerak bo'lgan jon, va Navoiy bu ramzni chuqur ma'naviy va ruhiy ma'nolar bilan boyitgan.

Bu timsollarning barchasi Alisher Navoiy asarlariga chuqur falsafiy va ruhiy mazmun baxsh etadi, ularning ma'nosi esa islomiy tafakkur, Qur'on va hadis ilmi, shuningdek, Sharq falsafasi, mifologiyalar va xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu timsollar haqida bilimga ega bo'lmay turib, Navoiy asarlarining asl mazmun va mohiyatiga yetish mushkuldir. Bu boradagi izlanishlarda Abdurauf Fitrat shoir asarlarini birinchilar qatorida ilmiy asosda tahlil qilgan bo'lsa, G'afur G'ulom, Oybek singari jonkuyarlarimiz adabiy-estetik va tarixiy nuqtai nazardan o'rganish ishlarini davom ettirgan. Bugungi kunda Navoiy lirikasining diniy va falsafiy ruhdagi ma'no qirralari keng ko'lamda mushohada etilishiga yo'l ochildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Navoiy, A. **Xamsa**. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
2. Navoiy, A. **Lison ut-Tayr**. – Toshkent: Fan, 1992.
3. Navoiy, A. **Mahbub ul-qulub**. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1986.
4. Shukurillaev, Sh. **Alisher Navoiy asarlarida obraz va timsollar** . – Toshkent: Fan, 2005.
5. Yo'ldoshev, N. **Navoiy poetikasi**. – Toshkent: Fan, 1991.
6. G'aniyeva, N. **Alisher Navoiy va Sharq renessansi**. – Toshkent: Fan, 2003.
7. Azimjonova, G. **Navoiy timsollarining poetik funksiyasi // O'zbek tili va adabiyoti jurnali**. – 2019. – №3.
8. Qosimov B. **Navoiy asarlarida tasvir tasviri**. – Toshkent: Fan, 2000.
9. Karimov, I.A. **Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch**. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. Ismatullayeva, G. **Navoiy asarlarida ramziy timsollar // Filologiya masalalari**. – 2021. – №2.
11. G'afurov, A. **Navoiy asarlaridagi ramz va timsollarning semantik talqini // Til va adabiyot ta'limi**. – 2020. – №1.